TOHIR MALIKNING "SHAYTANAT" ROMANI QAHRAMONLARI TAHLILI VA ASARNING JAMIYATGA TA'SIRI

G'ayibov Xurzodbek Dilshod o'g'li
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi
+998939227679
gaibovkhurzodbek@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.10243021

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tohir Malikning "Shaytanat" romanining asosiy qahramonlari va ular atrofida ro'y bergan voqealar badiiy va ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi. Qolaversa, obrazlardagi xususiyatlarning jamiyatimiz hayoti bilan bog'liqlilik darajasi o'rganiladi.
Kalit so'zlar: Shaytanat, Tohir Malik, jinoiy to'da, vatan tuyg'usi, qasos, jinoyat.

KIRISH

Inson boshqa mavjudotlardan nafaqat tafakkuri balki, boshqalarga bo'lgan mehr-muruvvati, vijdoni, imoni bilan ham ajralib turadi. Ongini taniy boshlaganidan so'ng hayotning katta sinovlar eshigi ochiladi. Asosiy sinov esa oldida turgan eng to'g'ri yo'lni tanlash va shu yo'ldan yurish bo'ladi. Bu yo'llar Ezgulik hamda unga yonma-yon turgan Jaholat yo'llaridir. Garchi eng to'g'ri yo'l bizga ko`rsatilgan bo'lishiga qaramay, yonimizda turgan yo'ldan shayton turli xil jilolar bilan biz insonlarni o'z olamiga taklif etadi. Tafakkur va imon libosini kiygan insonlar Ezgulik yo'lidan qoqilmay davom etaverishadi. Ular uchun jaholat yo'li berkdir. Ammo nafs deb atalmish kuchga qul bo'lganlar esa barcha yovuzliklarni o'zida mujassam etgan shayton olami bo'lmish "shaytanat"ga yo'l olishadi. Bu olamda nurli cho'qqilarga erishish oson tuyuladi.

ASOSIY QISM

Tohir Malik qalamiga mansub "Shaytanat" romanida ham yuqoridagi voqealar haqida so'z boradi. Asardagi "shaytanat" dunyosi juda keng bo'lib, borgan sari bu olamga bilib-bilmay, adashib kirib keluvchilar evaziga kengayaveradi. Maqsad esa bitta – boylik. Koshki edi to'plangan boylikdan aqalli bir tangani o'zi bilan u dunyoga olib keta olishsa. Aynan shu qo'lning kiri uchun vijdonidan kechib shaytonning yo'rig'iga kirgan kimsalar o'zlariga hasad, xiyonat, zulm kabi illatlarni hamroh qilishadi. Romanning asosiy qahramonlaridan biri Asadbekning ham biz tilga olgan olamga kirib kelishining asosiy sababining biri shu boylik bo`lsa, yana biri otasi uchun qasos olish edi. Qasosni ham oldi, otasining qabrini ham topdi ammo ko'zini ko'r qilgan, yillar davomida misqollab yig'gan boyligi-yu shon-shuhratini sovurishga ko'zi qiymas edi. Balkim otasiga "xalq dushmani" tamg'asi bosilmaganida onasi va ukasi tirik bo'lgan, o'zi esa "shaytanat"ning yaqiniga ham yo'lamagan bo'larmidi. Shunday bo'lsa ham yana bir narsani esdan chiqarmaslik kerak. Shayton qo'ygan zalolat urug'i Asadbekning yosh ko'nglida unib chiqmasidan oldin uni yo'q qilish mumkin edi. Uning yaqinlari jumladan, eng yaqin sirdoshi Jalilni uni ayab do'sti qilayotgan zulmdan boxabar bo'lib jim yurish o'sha urug'ga suv quyish bilan barobar edi. Befarqlik aynan shunday urug'larning o'sishiga qilingan beminnat xizmat hisoblanadi. Shu sababdan ham "shayatnat"dagi navnihollar ko'karmoqda, bora-bora o'zimizni o`rab olmoqda.

Asadbek "shaytanat" olamining bir qismiga hokimlik qiluvchi saltanatning ham a'yonlari bo'lib, biri Asadning yoshlikdagi do'sti Haydar Kesakpolvon bo`lsa, ikkinchisi Mahmud Chuvrindi.(Har bir olamning o'ziga yarasha qonun-qoidalari, an'analari bo'lgani kabi bu to'daning ham o'z an'analari mavjud. Shulardan biri laqab qo'yish edi.) Kesakpolvon

yoshligidan kuchli va epchil, lekin aqlan tez va oʻylamay qaror chiqaradi. (“shaytanat”ning gullashida uning-da yaxshigina xizmatlari singgan.) Chuvrindi tashqi ko`rinishi umuman laqabiga mos boʻlmagan, doimo oʻylab qaror chiqaradi. Shuning uchun ham saltanatning eng mas’uliyatli ishlari uning boʻynida edi. Har ikkalasining ham bu yoʻlga kirishida ota-ona tarbiyasi yetishmovchiligi edi. Lekin shayton inson ustidan hech qachon toʻla hukm oʻtkaza olmagani kabi ular ham Jaholatni oʻz ixtiyorlari bilan tanlashgan. Yana shuni aytib oʻtish joizki, “shaytanat”da bu kabi toʻdalar yuzlab topiladi va ular doimo ochiqchasiga boʻlmasa ham bir-birlarining payida yurishadi. Kim bu olamning asosiy aqidasi boʻlmish “ehtiyotkorlikni yoʻqotmaslik, zamonga qarab ish tutish”ni unutgan zahoti payida yurganlarga yem boʻladi. Misqollab yigʻilgan qudratni yoʻqotishni istamaganlari kabi doimo har nafasini tahlika va qoʻrquv bilan olishlari shart edi. Shu tahlikali hayot esa ular uchun bir tarafdan rohat. Mig ehtiyotkorlik qilinmasin katta boylik izidan , albatta , jazosi tayin boʻlgan gunohlarni olib keladi. Bunday jazo ham ularni juda koʻp kuttirmadi. Kimdir jazoni oʻz joni bilan oʻtagan boʻlsa, kimdir oilasining, farzandlarining baxti bilan xun toʻladi. Koʻrinib turibdiki qimor, oʻgʻirlik va shu kabi harom yo`llar bilan kelgan mol-dunyo hech qachon egasiga vafo qilmaydi.

Asarda nafaqat imon yoʻliga qaytish balki, adolat hamda Vatan tuygʻulari ham asosiy oʻrinni egallagan. “Shaytanatning” yana bir qahramoni xushovoz xonanda Elchin ham bu olamga adolat istab kirgan bandalardan. Qamoqqa tushmasidan oldin xalqning e`tirofiga sazovor boʻlgan qoʻshiqchi Asadbek toʻdasining suyukli artistiga aylanadi. Bu bandani ham tinch qoʻymagan nafs balosi qimor deb atalmish boshi berk koʻchaga olib keladi. Berk koʻchadan chiqishning bitta-yu bitta yoʻli oʻzi suygan yori Noilani qimorga tikish edi. Nafs tutquni boʻlgan bandaga bu hech ish emasdi. Bu bilan u nafaqat xotinining balki oʻzining-da nomusiga oyoq qoʻygandi. Aybini kech tushungan nafs quli barcha ayblarni boʻyniga olib, oʻlishi muqarrar paytda qoʻli koʻp yerlarga yetuvchi hojasi Asadbek unga dars boʻlsin uchun jazoni yengillashtiradi. Ammo bu Elchinning qasoskorga aylanishiga va kelajakda oʻziga katta talofotlar keltirishiga sabab boʻladi. Qamoqxonada qasoskorga Zelixon ismli taqdirning gardishi bilan Fargʻonaga kelgan chechen koʻmak beradi. Shuni aytib oʻtish joizki, Zelixon Xongireyev oʻgʻrilar ichida “akademik” hisoblanadi va “shaytnat”dagi eng yirik va qudratli saltanatlardan birining toʻdaboshisiga ustozlik qiladi. Ikkalasi Elchinning qasosini amalga oshirishga muvaffaq boʻlishdi ham. Yaralash chogʻida orzulari bir dunyo qizning nomusi toptaladi. Bundan qattiq alamzada boʻlgan yaralangan sher ya’ni Asadbek qasoskorni tutqunga aylantiradi va qasoskor ruhi ham oʻz poyoniga yeta olmay jon berishga majbur boʻladi. Voqeadan anglab olish hech ham qiyin boʻlmagan jihat bu nafsning qanday yoʻllarga boshlashi va oqibatda qayerga olib kelishi boʻladi. Shuni ham esdan chiqarmaylikki, asarda ta’kidlanganidek “Qasos faqat Allohdan.”.

Yana bir adolatni qaror toptirishni istab “shaytanat”ning ildizini quritish uchun bu olamga yaqinlashgan inson prokuratura tergovchisi Zohid Sharipov boʻladilar. Oddiy dehqon bolasi ilm yoʻlidan ketishini kim ham oʻylabdi, biroq ilm yoʻlini tashlab huquq sohasiga oʻtish, albatta, kutilmagan hol. Buning sababi esa toʻyi kechasida oʻldirilgan akasining qotillariga chiqarilgan adolatsiz hukm boʻldi. Ilm yoʻlidagi ustozi Habib Sattorov shogirdining bu keskin qaroriga ishda lavozimi prokuratura tergovchisiligiga koʻtarilgandan keyin ham oʻzgarmaydi. Hayotni faqat fan koʻzi bilan koʻruvchi inson bunga , albatta , qarshi boʻladi. Huquq sohasida ham omadi yurishgan yosh kadr Zohid Sharipov bora-bora Asadbek olamini quritishga harakat qila boshlaydi. Afsuski, bunda uning yoʻliga o`z kursisining rahbarlari boʻlmish mansabparastlar

uning yo'lidagi eng katta g'ov bo'ladi. Bu holatda unga daldani faqat kasbdoshi depara tergovchisi tabiatan cho`rtkesar va haqiqaqatparast Hamdam Tolipov hamda o'zining huquq sohasidagi ustozi mayor Maqsud Soliyev bera oladi. Biroq ular ham ko`pni ko'rgan, tajribali bo'lishlariga qaramay mansabparastlar zulmidan azob chekuvchilardan edi. Bu tabiiy, albatta. Shu kabi kursi xo'jayinlari "shaytanat"ni yashnatayotganda adolat qaysidir temir quti ichida mog'ol bosib yotaveradi

Qaysidir jihatdan Zohidning huquq sohasiga kirishi adolat qaror topishi uchu oz bo'lsa-da turtki bera oldi, albatta. Biroq jamiyatdagi shu kabi muammolar hali beri yechimini kutib yotar ekan, adolat temir qutidan chiqishi uchun unday turtkilardan yana qanchasi kerak bo'lar ekan?!

Dastlab eslatib o'tilganidek asarda yuqori o'rinda Vatan, Vatanni hurlik cho'qqisiga chiqarish g'oyalari ham turadi. Ona Turkistonni zulmkorlar qo'lidan tortib olib uni hurlikka eltishni diliga joylagan qahramonlar ushbu asarda ham yaxshigina topiladi.Kichik jussasida qanchadan-qancha shahid ketgan jadidlarimizning Vatanni mustaqillik sari eltishdek armonlarini ko'tarib yuruvchi Anvar Sattorov asarning eng asosiy qahramonlaridan. Asarda ona yurtning ozod bo'lishini istaydiganlar ko'plab topiladi biroq tarix ilmi kishisichalik hech kim jasorat ko'rsata olmadi. Shucha yildan buyon institutda eng quyi lavozimni egallab atigi bir pog'ona ham siljimagan Anvarni bunga nima majbur qildi yoki nima shu yerda qolishga undadi?! Uning haqiqat uchun kurashishi ikkala savolga aniq javob bo'la oladi. Haqiqat uchun "jinni"likni ham bo`yniga ola olgan inson , albatta, matonatli inson hisoblanadi. Aynan shu qahramon orqali Tohir Malik o'z dilidagi ba'zi tugunlarni yechgan bo'lsa ajab emas.

XULOSA

Xulosa tarzida shuni fikr qilish mumkinki, Tohir Malik o'zining "Shaytanat"i orqali jamiyatimizda va insonlarda uchraydigan ko'plab muammolarni chuqur tarzda yoritib bera oldi. Hozir ham dolzarb bo'lgan befarqlik, xiyonat va nafs kabi illatlarning qay tarzda o'zimiz va o'zgalar hayotiga ta'sir etayotganligini juda mohirona ochib bera oldi. Qolaversa, asarni o'qir ekan qahramonlarning ba'zi bir jihatlarida o'qiguvchi o'zini ko'radi. Shunday ekan asarni to'liq o'qib chiqqan holda o'ziga tegishli xulosani olar ekan, o'quvchi uchun bundan katta saboq bo'lmaydi. Zero, shayton insonlarni har qadamda o'z olamiga chorlar ekan, siz-u bizdan ogohlik va imon hamda tafakkur butligi talab qilinadi.

References:

1. Tohir Malik "Shaytanat: Qasos "// O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2018.
2. Tohir Malik "Shaytanat: Non bergan, jon olmaydi "// O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2018.
3. Tohir Malik "Shaytanat: Semirgan chumoli "// O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2018.
4. Tohir Malik "Shaytanat: Oqqush qo'shig'i "// O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2018.
5. Tohir Malik "Shaytanat: Azozil do'koni"// O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2018.